



THE HUMANISTIC ESSENCE OF THE CONCEPTS OF LOVE IN THE TEACHINGS OF MIRZO ABDULQODIR BEDIL

Oynisa Mukhammadieva

Professor, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Email: oynisamu@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Mirzo Bedil, Sufi philosophy, divine love, human love, humanism, spiritual perfection.

Received: 19.04.26

Accepted: 20.04.26

Published: 21.04.26

Abstract: This article analyzes the humanistic significance of love and affection in the teachings of Mirzo Abdulqadir Bedil. The author highlights the humanistic and philanthropic aspects of the concept of love in Bedil's philosophy, as well as its importance for spiritual purification, moral perfection, and the process of personal development. Additionally, the article illustrates the role of human love in shaping humanitarian values such as compassion, benevolence, and social harmony.

MIRZO ABDULQODIR BEDIL TA'LIMOTIDA ISHQ-MUHABBAT G'OYALARINING GUMANISTIK MOHIYATI

Oynisa Muxammadiyeva

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti professori

oynisamu@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Mirzo Bedil, tasavvuf falsafasi, ilohiy ishq, insoniy muhabbat, gumanizm, ma'naviy kamolot, inson mohiyati.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mirzo Abdulqadir Bedil ta'limotidagi ishq-muhabbat g'oyalarining gumanistik mohiyati tahlil qilingan. Muallif Bedil falsafasida ishq tushunchasining insonparvarlik va gumanistik jihatlari, shuningdek, uning inson ma'naviy kamoloti, ruhiy poklanishi va komillikka erishish jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Shu bilan birga, maqolada insoniy muhabbatning mehr-oqibat, bag'rikenglik va ijtimoiy

hamjihatlik kabi gumanistik qadriyatlarni shakllantirishdagi o'rni ham ko'rsatilgan.

ГУМАНИСТИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ИДЕЙ ЛЮБВИ В УЧЕНИИ МИРЗЫ АБДУЛКАДИРА БЕДИЛЯ

Ойниса Мухаммадиева

Профессор

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Электронная почта: oynisamu@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬ

Ключевые слова: Мирзо Бедил, суфийская философия, божественная любовь, человеческая любовь, гуманизм, духовное совершенство.

Аннотация: В статье проанализирована гуманистическая сущность идей любви и привязанности в учении Мирзы Абдулкадира Бедиля. Автор раскрывает гуманистический и человеколюбивый аспект понятия любви в философии Бедиля, а также её значение для духовного очищения, морального совершенствования и достижения личной полноты. Кроме того, в статье показано, какую роль человеческая любовь играет в формировании сущностей гуманизма, таких как сострадание, милосердие и социальная гармония.

Kirish. Insonning eng katta orzusi baxtli va farovon yashash. Bu hayotiy haqiqatni hech kim inkor etmasligi shubhasiz. Baxt va farovonlik o'z-o'zidan amalga oshadigan hodisa emas, albatta. Adolatli, insonparvar jamiyatda insonning anashu orzu-umidlarini amalga oshirish imkoniyati mavjud bo'ladi. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizning zamirida ham bevosita insonning baxtu kamoli, farovonligi yotadi. Eng muhim vazifa shundan iboratki, olidimizga qo'ygan ulug' va buyuk maqsadni amalga oshirishda gumanizm g'oyalarining xalqimiz qalbidan qanchalik o'rin olayotganligiga bog'liqdir. Dunyoni qutqaruvchi, hayotning davomiyligini ta'minlovchi, insonlarni bir-biriga munosabatida iliqlik kayfiyatini beruvchi tuyg'u shubhasiz mehr-muhabbatdir. Muhabbat dardiga muhtalo bo'lgan kimsa o'zining ijobiy xislatlarini namoyon etishga harakat qiladi. Qalbida ishq-muhabbat tuyg'usi mehmon bo'lgan insonning ko'ziga hamma narsa go'zal va betakror bo'lib ko'rinadi. Bunday insonlar faqat yaxshilik, ezgulik, yaratuvchilik, bunyodkorlik kabi ishlarni bajarishga harakat qiladi. Bu hol inson tabatiga hos bo'lgan holatdir. Bubk faylasuflar, shior va olimlar bejizga ishq-muhabbatni kuylab o'tishmagan.

Insonda insoniylik tuygʻusini qaror toptirishda ishq-muhabbat tuygʻusiga teng keladigan kuchni topish qiyin. Insonni Olohga boʻlgan muhabbati uni iymon-eʼtiqodini butun qilishga, insof, adolat, halollik, pokizalik, sabr-qanoatlilik kabi fazilatlar bilan bezaydi. Insonni insonga boʻlgan muhabbati unda insonpararlik, oilaparvarlik, vatanparvarlik kabi axloqiy fazilatlarni kamol toptirishga, uni yaratuvchilikka undaydi.

Muhokama va natijalar. Markaziy Osiyo maʼnaviy-falsafiy tafakkuri tarixida inson, insoniy va ilohiy muhabbat, ishq-muhabbatning inson maʼnaviy kamolotiga taʼsiri masalalari muhim oʻrin tutadi. Ayniqsa, XVII–XVIII asrlarda yashab ijod etgan Mirzo Abdulqodir Bedilning falsafiy qarashlarida mehr-muhabbat, ishq-muhabbat bevosita inson mohiyatini anglatuvchi asosiy omil sifatida talqin etiladi. Bedil taʼlimotida tasavvufiy-ilohiy ishq va insoniy muhabbat gʻoyalari nafaqat diniy-mistik mazmunga, balki insonparvarlik ruhiga ham ega boʻlib, ular inson qadri, ruhiy poklanish va maʼnaviy yuksalish kabi masalalar bilan uzviy bogʻliqdir.

Bedilning ishq falsafasi insonni komillikka yetaklovchi maʼnaviy kuch sifatida talqin qilinadi. Unda ishq nafaqat ilohiy haqiqatga intilish vositasi, balki insonlar oʻrtasidagi mehr-oqibat, bagʻrikenglik va ezgulik kabi umuminsoniy qadriyatlarni shakllantiruvchi omil sifatida ham namoyon boʻladi. Shu jihatdan, Bedil taʼlimotidagi ishq-muhabbat gʻoyalari gumanistik nuqtai nazardan tahlil qilish bugungi kunda ham muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

Mirzo Bedil taʼlimotidagi tasavvufiy-ilohiy va insoniy ishq-muhabbat falsafasining mazmun-mohiyatini tahlil qilish hamda uning gumanistik xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Tadqiqot jarayonida Bedil asarlaridagi ishq konsepsiyasi, uning inson maʼnaviy kamoloti bilan bogʻliq jihatlari hamda insonparvarlik gʻoyalari ilmiy tahlil qilindi.

Darhaqiqat, insonning hayotiga mazmun va yashashga ishtiyoq beruvchi, insoniy munosabatlarni yuqori choʻqqiga olib chiquvchi asosiy omillardan biri mehr-muhabbatdir. Oʻrta asrning buyuk mutafakkiri, faylasuf shoiri Mirzo Abdulqodir Bedilning falsafiy taʼlimotida ham ishq-muhabbatga alohida ahamiyat qaratilganligi bejiz emas. Mirzo Bedil borliqning yaratilishidan tortib to insonlarning mohiyatigacha boʻlgan jarayonni ishq-muhabbatsiz tasavvur eta olmaydi.

Mirzo Bedilning “Bedil” taxallusida “bedillik” ishqning mukammalligi, oʻzlikdan kechishning haddi aʼloga yetganiga dalil boʻlib kelganligi haqida taʼkidlanganligi ham uning taʼlimotida ishq-muhabbatga katta eʼtibor berganligini anglatadi. Bedil ruboiylarida qoʻllanilgan «dil» tushunchasi ishqning, muhabbatning makoni sifatida tushuniladi.

Bedil nazdida dil va uning bir bandi esa bir olamdir:

Bedil shikasti shishai dil niz olmist..(Dil shishasi har boʻlagi oʻzi bir olam erur) [1]. Demak, bir dil sinishi yo oʻksishi butun olamning buzilishi bilan barobardir.

“Bedil” badiiy adabiyotda dilini qo‘ldan bergan oshiq - ma’shuq ma’nosini anglatadi. Shuningdek, o‘z ishini qalbi bilan sevgan, ko‘ngilni fan va adabiyotga bag‘ishlaganini anglatishi haqida ham fikrlar bor. [2] Ushbu fikrni isboti o‘laroq, yana shuni qo‘shimcha qilishimiz mumkinki, “Bedil” deyishning ma’nosi aniq: oshiq yorga shu qadar mahv bo‘lganki, ma’shuqa tajalli aylaydigan makoni – dilning o‘zini ham olib qo‘ygan, tamoman zabt etgan, shu sababdan u bedil (dilsizdir) [3]. Darhaqiqat, garcha “Bedil” taxallusi bir qarashda dilsiz, qalbsiz ko‘rinsa-da, aslida butun qalbi va dilini Allohga bag‘ishlagan ma’shuq ma’nosini uqib olishimiz mumkin. Faylasuf shoir bu haqida shunday deydi:

Bedil osudatar az mavchi guhar hok shudem,
Raftan az xesh chi miqdor ba tamkin omad

“Gavharning sekin-sekin mavj urishi bilan uvadalanib, bedil bo‘lib bordik, (endi) o‘zlikdan qutulishning (voz kechishning) qay darajada imkoni qoldi ekan?” [4] Bunda shu narsa ma’lum bo‘ladiki, “bedillik” ishqning mukammalligi, o‘zlikdan kechish, Allohga bo‘lgan cheksiz va barqaror muhabbatning chegara-darajasidir. Bir so‘z bilan aytganda, Bedil o‘z qalbini Allohga bag‘ishlagan faylasuf-shoirdir.

Bedil real ishqni, sof sevgini borliqning, mavjudotning rivoji deb bilib, uni borliq va inson harakatning manbai hisoblaydi:

Be ishq, maxal ast, buvad ravnaqi xati
Be chilvai chahon namasiyoh ast.

Ma’nosi: ishq-muhabbatsiz borliq rivojining bo‘lishi mumkin emas, Quyoshning zarrin nurisiz dunyo zulmatdir [5]. Bedil yuqoridagi bayti orqali o‘zining mavjudligini ham ishq bilan deb biladi. Bedil nazdida Ishq – inson ruhini poklovchi va uni haqiqat sari yetaklovchi eng buyuk kuchdir. “Ishqsiz dil – nursiz oyna kabidir” . Bu yerda Bedil inson qalbining kamoloti muhabbat bilan bog‘liq ekanini ta’kidlaydi.

Bedil o‘z qarashlarida ilohgami, yo sevgan yor malikasigami ishqini pinhon tutish tarafdori. Shunda bu asl ishq bo‘lib, o‘z qadrini yo‘qotmaydi. Bedil ilohiy yoki insoniy ishqni ulug‘larkan, bir baytida bu fikrini badiiy vositalar orqali shunday ifodlaydi:

Rozi ishq az dil burun aftodu rasvoi kashid,
Shud parishon ganj, to g‘ofil shud az vayronaho.

Mazmuni:

Dil uyin etmasdan makon, ishq siri tortdi ranj,
Vayronadin qolib ayro, o‘zligin yo‘qotdi-ku ganj.

Allohga o‘z ishqini yashira olmagan Mansur Halloj dorga osildi. So‘fiylar tili bilan aytganda u “Ollohga ishq sirlarini sir saqlash uchun yaratilgan qalbida saqlashi lozim edi, saqlamay esa shuning oqibatida halokatga uchradi, bunga o‘zi aybdor” [6]. Bedil ham ilohiy ne‘mat sanalmish ishqni qadsizlantirishda ana shunday xoru zorlik, ranj uqubat alomatlarini ko‘radi. Ya‘ni sevgi-muhabbatni oyoq osti qilishni gunoh sanaydi. Bugungi oddiy hayotimizda bu ne‘matni qadrlamaslik esa oilalar buzilib, jamiyatda yana bir qiyinchiliklar ko‘payishiga olib keladi.

Faylasuf-shoirni tasavvuf ta‘limoti bilan oshno bo‘lganligini e‘tiborga oladigan bo‘lsak, ishq-muhabbat ilohiyligiga guvoh bo‘lamiz.

Ishq dog‘i kabi nurga niqobidir yuragim,
Oina kabi dard ila sofdir yuragim.
Sen so‘rading, berdim yulib ko‘ksimdan,
La‘ling bu savol, unga javobdir yuragim [7].

Bedil yuqoridagi satrlari orqali Ishq insonni o‘zligidan olib chiqib, uni haqiqat bilan yaqinlashtirishiga ishora qiladi. Bu bilan faylasuf tasavvufiy-ilohiy ishq konsepsiyasini ifodalaydi.

Bedil tomonidan ishq-muhabbat tushunchasining ilgari surilishi tasodifiy hol emas, chunki, qadimgi davr Sharq falsafasida ham, o‘rta asrlar faylasuflarining aksariyatida ham inson qalbini koinot yorug‘liklari harakatga keltiradi. Ya‘ni, koinot nurini mayinlik, yumshoqlik, muhabbat ma‘nosida tushunish mumkin. Masalan, qadimgi davrda vujudga kelgan zardo‘shiylikda yorug‘lik, nur, olov butun borliqqa hayot baxsh etuvchi kuch sifatida qaralsa, qadimgi Hindistonda vujudga kelgan buddizm dinida ham nur ilohiy, hayotbaxsh unsur sifatida qaraladi.

Axloqning muhim tushunchasi bo‘lgan, borliqqa hayot bag‘ishlovchi “ishq” tushunchasiga kengroq to‘xtaladigan bo‘lsak, avvalo shuni alohida qayd etishimiz kerakki, Bedil ushbu tushunchaga yondashganda Sharq mutafakkirlarining g‘oyalaridan unumli foydalanadi. Shu o‘rinda Ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumi, Alisher Navoiy kabi alloma va mutafakkirlarimizning fikrlariga bir oz to‘xtalishni lozim topdik.

Ibn Sinoning fikriga ko‘ra, Zuhro sayyorasi ta‘sirida ishq kelib chiqadi. “Hayy ibn Yaqzon” deb nomlangan asarida Zuhro go‘zal, quvnoq, pok odamlar sayyorasi sifatida tasvirlanadi. Ibn Sino “Risola-ye ishq” asarida ishqni ta‘riflaganda, uning quyidagi belgilariga alohida to‘xtaladi:

birinchidan, ishq axloq doirasidagi tushuncha;
ikkinchidan, oliy himmatlilik, oliyjanoblik manbai;
uchinchidan, oshiqni faollashtiradi;

to'rtinchidan, u shunday kuchki, mutlaq go'zallik, ezgulik timsoli bo'lmish yaratuvchiga intiltiradi [8]. Bu kabi fikrlarni yanada boyitgan mutasavvif-faylasuf Imom G'azzoliy ishq-muhabbatni nafaqat hissiy, balki aqliy bilishning ham mahsuli deb ataydi. Mutafakkirning fikriga ko'ra, muhabbatning 5 turi mavjud:

- insonning o'ziga, o'z kamoloti va sog'-salomatligiga muhabbati;
- insonning o'z hayotini davom ettirishini ta'minlovchi, uni asrovchi, undan turli muxlikatni (halok etuvchilarni) nari tutuvchi valine'matlariga muhabbati;
- insonning, garchand shaxsan o'ziga yaxshilik qilgan zotlarga yaxshilik bilan javob bermagan bo'lsa ham, boshqa insonlarga xizmat qilgan, muruvvat ko'rsatgan zotlarga muhabbati;
- insonning tashqi yoki ichki qiyofadagi barcha go'zallikka muhabbati;
- insonning o'zi bilan botiniy, yashirin o'xshashligi bor bo'lgan zotlarga muhabbati [9].

Mazkur muhabbat turlari hammasining zamirida Allohga muhabbat yotadi, ya'ni insonning o'ziga, atrof-muhitga, o'zgalarga munosabati muhabbat orqali amalga oshadi va bu muhabbat turlarining hammasi Allohga muhabbatning bilvosita ko'rinishidir.

Mirzo Bedil ham Allohga bo'lgan ilohiy muhabbatini quyidagi baytlarida ifoda etadi:

Zi chashmi benigoh budom xarobodom g'oratho

Ha hayroniy michah bardoshtaq kardam amaratho [10]

Ma'nosiga ko'ra, nigohsiz ko'zlarim g'ayb nigohlari tufayli g'arot bo'ldim va harobod ahliga, oshiqqa aylandim. Hayrat bilan ko'z ochdim-da, imoratlar paydo qildim. Bedil Allohning nazari tufayli unga oshiq. Bu ishq uning o'zligidan kechib, bunyodkorliklar sari undaganligini tushunishimiz mumkin.

Jaloliddin Rumiyning "Ma'naviy masnaviysi"da ishq tushunchasi haqida juda qiziqarli g'oyalar ilgari surilgan:

Har kiro jama zi ishqe chok shud,

O' zi hirsu jumla aybe pok shud.

Kimsa egni ishqdan gar chokdir,

Pokdir u, hirsu aybdin pokdir [11].

Uni tahlil etsak, kimningkim xudbinlik va nafsoniy libosi Haqqa bo'lgan ishq shiddatidan chok-chok bo'lsa, u har nechuk hirsu havasdan, sharmu xatodan pokdir. Ishq u xoh haqiqiy, xoh majoziy bo'lsin, axloqni tarbiyalovchi qudratga ega. Hali sevmasdan burun kishi molparast, badfe'l, qo'rqqoq bo'lishi mumkin. Qachonki, ishq uning vujudini istilo qilsa, uning botinida muhrlangan tuyg'ular qopqasi lang ochiladi.

Bu-majoziy ishq, ya'ni, ilohiy ishqning suvrati. Haqiqiy zotlarga xos ishq. Banda majoziy ishq musibatlarini torta-torta poklanadi. Ma'shuqaning o'zi emas, uning eshigidagi it ham qandaydir xislatli tuyula boradi. Bu haqiqiy ishq suvrati. Biroq, haqiqiy ishqni qanday qilib his qilsa bo'ladi? Bu ishq ilohiy, buyuk va misli yo'q ishq Allohning asl bandalarida bo'ladi. Bu banda, eng avvalo, o'zining bandaligini teran his qilgan zotdir. Bu bandaning qalbi-oyinai jahonnoma. Unda bu olam o'zining bor go'zalligi, inson esa butkul qiyofasi va jamiyki nuqsonlari bilan aks etib turadi. Yassaviy g'oyasi Rumiyligari surgan ishq tavsifi bilan hamohang. Rumiyligari shuni alohida ta'kidlaydiki,

Ishq, joni Tur omad oshiqo,
Tur mastu "xorro Muso saiqa"
Tur joni ishq tufayli oshiqo,
mastu "xarro Muso saiqa" [12]

Ya'ni, Tur tog'iga ishq hayot va jon baxsh ayladi. Tur tog'i badmastlik qildi va Xudovandning tanlagan bandasi hazrat Muso alayhissalom bu ishqning azamati va jalolati tufayli behush bo'lib yiqildi. Tuproqdan yaralgan jismning ishq tufayli falaklarga parvoz qilishi, Tur tog'ining ishq tufayli mayda-mayda bo'lgani ishqning jozibasidan dalildir, deydi Rumiyligari.

Ishq masalasida Jaloliddin Rumiyligari xulosasi shuki, u muhabbatni millat, mazhab, dindan yuqori qo'yadi. Ishq ahli uchun millat ham, mazhab ham Xudodir, degan g'oyani ilgari suradi:

Millati ishq barcha dinlardan judo,
Ahli ishqqa millatu mazhab – Xudo [13].

Jaloliddin Rumiyligari o'z qarashlarida barcha insoniyatni ishq yo'liga kirishga da'vat etadi:

Ishq obi hayot erur, uning mavjiga kir,
Har qatrasini bir hayot emish, senga fido [14] ...

Alisher Navoiyligari asarlarida ham muhabbat juda keng ijtimoiy-axloqiy mazmun kasb etadi. Ishq Navoiyligari nazarida inson qalbini turli illatlar va hayvoniy hissiyotlar ta'siridan tozalovchi, insonda yuksak ma'naviy his-tuyg'ular uyg'otuvchi ruh yoki axloqiy kuchdir.

Har kimki muhabbat uyini maskan etar,
Ko'nglig'a habib kuyini gulshan etar,
Ko'b kasbi ziyo do'st yuzidin fan etar,
Mahbub yuzin ko'rmagi, ko'z ravshan etar [15].

Ishq - bu inson ruhining oliyjanob va mardona yuksalish yo'li. Navoiyligari ishqni uch turga bo'lib tahlil qiladi:

Birinchi tur - oddiy odamlar ishq bo‘lib, xalq orasida mashhur va keng tarqalgandir. Aytadilarki, “Falon odam falonchiga oshiq bo‘libdi”. Bu xildagi odamlar kimgadir oshiq bo‘lib, iztirob chekib, shuning xayoli bilan yuradilar. Bu ishq jismoniy lazzat va shahvoniy nafs bilan chegaralanadiki, oliy martabasi-sha’riy nikohdir. Nikoh barcha xalqlar uchun umumiy va zaruriydir.

Ikkinchi tur - alohida fazilat egalariga xos ishq bo‘lib, bu xos ishqqa mansub shaxslar pok ko‘zni pok niyat bilan pok yuzga soladilar va pok ko‘ngil u pok yuzning shavqi-zavqi bilan beqaror bo‘ladi. Bunda pok yuz vositasi bilan pok oshiq haqiqiy mahjubning jamolidan bahra oladi. Navoiy bu ishq turiga Xusrav Dehlaviy, Shayx Iroqiy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy va o‘zini ham oshiqlar sifatida sanab o‘tadi. “Ularning hammasida asl so‘z-ishq haqidagi so‘z. Ko‘ngilda hayot nash’asi bo‘lsa, bu-ishqning o‘zidir” Ularning she’riyat ustida bosh qotirishdan maqsadlari –ishqni tasvirlashdir.

Uchinchi tur – haqgo‘ylar ishq bo‘lib, ular Haqning jamolini ochiq ko‘rish umidi bilan yashaydilar va shuning bilan matlubdirlar. Ularning Haqni ko‘z bilan mushohada qilish umidlari o‘zni unutish darajasiga yetgan va bundan ham o‘tib, halok bo‘lish maqomiga ko‘tarilgan bo‘ladi, ya’ni parvonaning shamga urilib, halok bo‘lishiga o‘xshaydi. Navoiy ushbu maqomga yetganlar sirasiga Mansur Xalloy, Boyazid Bistomiylarni kiritadi [16].

Mutafakkir shoir Alisher Navoiy ilohiy ishqni kuylash barobarida unga yetishishdagi mashaqqatni shunday tasvirlaydi:

Taqdir ishq tojini qo‘ygach boshimga,

Ishq yurtin keltirdi ul toj qoshimga.

Ishq gavharin dilga yashirdi davron,

Undan o‘t tutashdi ichu tashimga [17].

Mirzo Bedil ham ushbu an’anani davom ettiradi. Ishq-muhabbat haqida shunday deydi:

Xurushi dard shunav, muddaoi ishq hamin bas,

Dar “allah” “allah”- i mo choi harfi lom naboshad.

Agar zi mulki adam to vuchud fahm g‘umori,

Ba chuz kalomi tu, Bedil, digar kalom naboshad.

Ma’nosi:

Mening dardimni, ishqimni eshitgin

U Allohdan kuylaydi,

Mening vujudimning mulki ham ishq bilan to‘ladir,

Va bu kalomdan boshqa kalom Bedil uchun yo‘qdir

Bedil talqinidagi ishq inson hayotining muhim qirrasini va mazmunidir. Insonning maqsadi, orzu-umidi va hatti-harakatlarining bosh mezonini ham ishq-muhabbatdir. Axloq inson hayotiga mazmun beruvchi qadriyat ekan, ishq-muhabbat ham axloqiy tushunchalarning eng muhimlaridan biri ekanligiga shubha yo'qdir. Bedil falsafasida ilgari surilgan Ishq-muhabbat – inson qalbining eng oliy fazilatidir.

Mirzo Bedil ta'limotida ishq-muhabbat falsafasi inson ma'naviy kamolotining muhim omili sifatida talqin etiladi. Uning qarashlarida tasavvufiy-iloхий ishq insonni haqiqatga, ma'naviy poklanish va komillikka yetaklovchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, Bedil insonlar o'rtasidagi muhabbat, mehr-oqibat va insoniy munosabatlarni ham yuksak qadrlaydi.

Bedil falsafasidagi ishq g'oyalari insonning ichki dunyosi, ruhiy poklanishi va ma'naviy yuksalishi bilan bog'liq bo'lib, ular insonparvarlik, bag'rikenglik va ezgulik kabi gumanistik qadriyatlarni targ'ib qiladi. Bu esa uning ta'limotida insonni oliy qadriyat sifatida talqin qilishga xizmat qiladi.

Mirzo Bedil ta'limotidagi tasavvufiy-iloхий, insoniy ishq-muhabbatning quyidagi konsepsiyalari ayni vaqtda gumanizm g'oyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi:

Ishq – borliqning asosiy harakatlantiruvchi kuchi. Bunda ishq butun mavjudotni harakatga keltiruvchi va uning rivojini ta'minlovchi kosmik kuch sifatida talqin qilinadi.

Iloхий ishq insonni haqiqatga yetaklaydi. Bedil fikricha, inson iloхий ishq orqali haqiqatni anglaydi va ma'naviy kamolotga erishadi.

Ishq inson ruhini poklaydi. Tasavvufiy an'anaga muvofiq, Bedil ishqni inson qalbini nafs va g'ubordan poklovchi ruhiy kuch sifatida tushuntiradi.

Ishq insonni komillikka yetaklaydi. Bedil falsafasida ishq insonning ma'naviy kamolotiga xizmat qiladi va uni komil inson darajasiga olib boradi.

Insoniy muhabbat – gumanistik qadriyat. Bedil insonlar o'rtasidagi muhabbatni mehr-oqibat, bag'rikenglik va insonparvarlik asosi deb hisoblaydi.

Ishq – inson va borliq uyg'unligining ifodasi. Bedil qarashlarida ishq inson va koinot o'rtasidagi ruhiy uyg'unlikni ta'minlaydi.

Ishq – ma'naviy ozodlikka yetaklovchi yo'l. Ishq insonni nafs asoratidan xalos qilib, uni ma'naviy ozodlikka yetaklaydi.

Mirzo Bedil Fariddin Attor, Jaloliddin Rumi, Alisher Navoiy kabi mutasavvuf allomalarning an'analarga tayanib, ishqni inson va borliq o'rtasidagi ruhiy bog'lanish sifatida tushuntiradi. Uning fikricha, inson haqiqatni anglash va ma'naviy komillikka erishish uchun avvalo ishq yo'lidan o'tishi kerak. Bu ishq esa faqat insonlar o'rtasidagi muhabbat bilan cheklanib

qolmay, balki ilohiy haqiqatga bo'lgan chuqur ruhiy intilishni ham ifoda etadi. Shu jihatdan Bedil falsafasida ishq insonning ichki dunyosi va ma'naviy kamoloti bilan uzviy bog'liq tushuncha sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Bedilning falsafiy qarashlarida ilohiy ishq inson ruhini poklovchi va uni ma'naviy yuksalish sari yetaklovchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, inson qalbi turli nafsoniy istaklar va dunyoviy g'uborlar ta'sirida o'zining pokligini yo'qotishi mumkin. Bedil ishqni ana shu ruhiy g'ubordan xalos etuvchi va inson qalbini poklovchi ma'naviy omil sifatida talqin qiladi. Ishq orqali inson o'zining ichki dunyosiga nazar tashlaydi, ruhiy poklanish jarayonini boshdan kechiradi va komillikka intiladi. Shu bilan birga, Bedil falsafasida insoniy muhabbat ham alohida ahamiyatga ega. U insonlar o'rtasidagi mehr-oqibat, bag'rikenglik va hamjihatlikni jamiyat barqarorligining muhim asosi sifatida ko'radi. Bedil fikricha, insonlar o'rtasidagi muhabbat va hurmat ruhiy kamolotning muhim sharti hisoblanadi. Bu qarashlar Bedil falsafasida insonparvarlik va gumanistik g'oyalarning muhim o'rin egallashini ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Bedil ta'limotida ishq-muhabbat tushunchasi faqat tasavvufiy-mistik mazmun bilan cheklanib qolmaydi. U insonning ma'naviy kamoloti, ruhiy poklanishi va jamiyatda insonparvarlik munosabatlarini qaror toptirishga xizmat qiluvchi falsafiy konsepsiya sifatida namoyon bo'ladi. Bedilning ishq-muhabbat haqidagi qarashlari insonni ezgulik, poklik va ma'naviy yuksalish sari chorlaydigan chuqur gumanistik g'oyalarni o'zida mujassam etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Komilov N., Sultonmurod O. Bedil she'riyatida dil timsoli //Filologiya masalalari. -T., 2006.
2. Mo'minov I. Tanlangan asarlar. 1 jild. - T.: Fan. 1969.
3. Sultonmurod Olim. Singan dil shishasining o'zi – bir olam // Bedil va o'zbek ma'naviyati. Ilmiy ishlar to'plami. - Tehron -Toshkent, 2005.
4. Muxammadieva Oynisa. Bedil va axloqiy qadriyatlar falsafasi. - T : "Yangi Nashr", 2016.
5. Shukurov Sh. Mirzo Bedilning poetik merosi. - T.: Fan. 1979. - B.54
6. Mehrin Shushtariy.Torixi zabon va adabiyoti Iron. - Tehron,1973.; Guharin Sayyid Sodiq.Sharhi istilohoti tasavvuf.1 - 4 jild. - Tehron, 1988. – B. 14-15 .
7. Mirzo Abdulqodir Bedil. Shavqingni yod etib. - T., 2005. - B. 8 .
8. Sulaymonova F. Sharq va G'arb.- T.: O'zbekiston, 1997. - B. 355 .

9. Sherov A. Tasavvuf. G‘azzoliy va go‘zallik falsafasi // Sog‘lom avlod uchun. 2002. № 2-B.16.
10. Mirzo Bedil. G‘azal va qasidalar / Asqar Mahkam tarjimasi. - T.: Hijriy 1333. - B. 3 .
11. Jaloliddin Rumiy. Ma‘naviy masnaviy. - T.: Sharq, 1999.- B. 47 .
12. Mavlono Jaloliddin Rumiy Masnaviy Ma‘naviy. Oltinchi kitob / Jamol Kamol tarjimasi. - Tehron.: Al-Xudo, 2004. - B.443 .
13. Jaloliddin Rumiy. Uchmoqqa qanot yo‘q vale uchgayman / Jamol Kamol tarjimasi. – T.: Adabiyot va san‘at , 1994. - B.30.
14. Alisher Navoiy she‘riyatidan. / “Chor devon”dan tuzuvchi Sh.Shomuxamedov, - T.: O‘zbekiston, 1977. - B.88 .
15. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. - T.: Adabiyot va san‘at , 1983. - B. 53 - 54.
16. Alisher Navoiy she‘riyatidan / “Chor devon”dan tuzuvchi Sh.Shomuxamedov. - T.: O‘zbekiston, 1977. – B.111.
17. Abdulqodir Bedil. Osor: iborat hasht child. Childi yakum. - Dushanbe: Adib. 1989. - B.131 .